

**Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorliknining roli**

***B.M.Quliyev - SamISI mustaqil izlanuvchisi***

Xizmat ko‘rsatish sohasida maishiy xizmat o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu soha asosan xususiy mulkka asoslangan tadbirkorlik yo‘li bilan rivojlanadigan sohadir. Uning ahamiyati, eng avvalo, yangi shi o‘rinlarini ochish evaziga xalq farovonligini oshirishga, xizmat turlarini ko‘paytirish orqali mamlakatning xizmat bozorini to‘ldirishga, katta daromad olish evaziga bir qismini soliq tariqasida to‘lash yo‘li bilan Davlat byudjetining daromadini ko‘paytirishga olib kelish bilan belgilanadi. Bunday muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maishiy xizmat ko‘rsatish faoliyati murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon korxona xodimlarini va resurslarini samarali boshqarish, xizmat ko‘rsatish standartlariga rioya qilish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning iste’molchilar talablariga mos kelishi orqali ta’minlanadi. Bu esa maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashti-rishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islo-hotlar negizida vujudga kelayotgan yangi iqtisodiy munosabatlar maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun qo‘lay imkoniyatlar, ya’ni iqtisodiy islohotlar maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari va tashkilotlari faoliyatlarini takomillashtirish, yangi xizmat ko‘rsatish shakllari va usullarining vujudga kelishiga imkoniyat yaratdi.

Bugungi kunga kelib, xizmat ko‘rsatish faoliyati iqtisodiy jihatdan ishlab chiqarishga qaraganda samarali bo‘lib bormoqda, chunki xizmat ko‘rsatish korxonalarida moliyaviy mablag’larni aylanishi tezroq, ham asosiy dastlabki faoliyatni boshlash uchun kam sarmoyalar talab etiladi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlar tajribasiga tayangan holda, respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlik oxirgi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Xizmat ko'rsatish faoliyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanib borishi, aholining maishiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarining o'sib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. Kichik maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari bozor kon'yunkturasi talablari va iqtisodiy muhitning o'zgarishiga sanoat korxonalariga qaraganda tez moslashish qobiliyatlariga egadir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning xozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini rivojlantirish, ularga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan, bugungi kunda respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari faoliyatini yanada taraqqiy ettirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki mazkur sohani rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining ham strategik vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Rivojlanishining hozirgi bosqichida maishiy xizmatlar miqdori va sifatiga qo'yilayotgan talablar oshib bormoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasining qo'llanilishi xizmatlarga bo'lgan talabning oshishiga olib keldi. Bu o'z navbatida iste'mol bozori tuzilmasida o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Shuningdek aholining ayrim qatlamlari moddiy farovonligini oshishi natijasida maishiy xizmatlarga o'zlarining talablari va ehtiyojlari mavjud bo'lgan iste'molchilar o'zlarining hayot qo'layliklarini oshirishni ta'minlaydigan turli assortimentdagi maishiy xizmatlarga katta talobgorlar hisob-lanishadilar. Shu sababli ayrim maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari o'z faoliyatlarini aholining aynan shu talablari, ehtiyojlarini qondirishga qaratdilar.

Respublikamiz iqtisodiy farovonligining oshishi va iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar yangi turdag'i talablarni shakllantiradi, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish siftiga talablarni oshiradi.

Insonlarning moddiy va ma'naviy xayoti darajasini oshirishga, turmush tarzini yaxshilash va takomillashtirishda xizmatlar sohasi muhim ahamiyatga egadir. Bizning fikrimizcha;

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

- xizmatlar sohasi moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tejaydi;
- ishchining bo'sh vaqtini ko'paytiradi;
- xodim mehnatining ijodiy mazmunini oshiradi;
- ish vaqtidan tashqaridagi nooqilona xarajatlarni qisqartiradi;
- insonlar xayotini yanada shinam xamda yoqimli qiladi;
- aholining barcha ijtimoiy guruhlari va qatlamlarining xayotiy manfaatlarini yuzaga chiqaradi va boshq.

Hozirgi kunda maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari ko'proq e'tiborni iste'molchilarining yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirishga qarata boshlashdilar. Chunki bunday yo'l tutishiga ularni sohada vujudga kelayotgan raqobat muhiti majbur qiladi. Raqobat o'z navbatida xizmatlar sifatiga qattiq talablar qo'yadi. Lekin, bu yerda shuni ta'kidlash joizki, maishiy xizmat korxonalari o'rtasidagi raqobat muhiti mamlakatimiz bozor kon'yunkturasiga muvofiq ravishda endi shakillanib bormoqda. Raqobat muhitining yaratilishi O'zbekistondagi maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish, xizmatlarga yangi xaridorlarni topish, aholining ta'minlangan va kam ta'minlangan qatlamlari uchun maishiy xizmatlar assortimentini taalluqli narxlarda shakllantirish va tabaqlashtirish uchun qo'shimcha dastak bo'lishi zarurdir.

Maishiy xizmatlar nafaqat ehtiyojlarni qondirishda, balki aholi ehtiyojlar shakllanishini maqsadga yo'naltirilgan holda, ularning bo'sh vaqtlarini tejash uchun imkoniyat yaratadi. Mamlakatimizda bozor munosabatlarini hozirgi rivojlanish bosqichida maishiy xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorliknining keng miqyosda rivojlanishi va roli tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi, aholining qo'shimcha daromadlari oshishi, ish bilan bandlik va ish o'rirlari sonining yuksalishiga, shuningdek asosiy ishdan tashqari nostandart ish bilan bandlikni ta'minlash imkoniyatini yaratishi belgilanadi.

Muxtasar aytganda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish :

- xizmatlarda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
- aholi ehtiyojlarini to'liqroq hisobga olish;

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

- sohadagi qora iqtisodiyotga oid holatlarni (xufiya faoliyatini) oldini olish;
- maishiy xizmatni ijtimoiy ahamiyatini oshirish;
- maishiy xizmat sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish;
- sohada yangi tashkiliy tuzilmalarni shakllanishiga olib keladi.